



I S T E ' M O L B O Z O R I


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-sentyabr

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 3620,8 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 17,8 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,9 foizga ko'payishiga olib keldi.

Xorazm viloyati shahar va tumanlar kesimida 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari



Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish korxonalarini qo'shma-gan holda) hajmida katta ulushga ega bo'lgan Urganch shahri (35,2 foiz), Xazorasp tumani (13,2 foiz), Urganch tumani (8,5 foiz) ni tashkil qilib chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilga nisbatan 104,0 foizni tashkil qilib, 1994,8 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-sentyabr oyida 1578,8 ming. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (9054,2 ming. so'm), Gurlan tumanida (2009,2 ming. so'm) va Xazorasp tumanı (1979,0 ming. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 59,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 3,1 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,6 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


Shahar va tumanlar	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Urganch shahar	9054,2	108,9
Xiva shahar	1632,5	106,2
Bog'ot tuman	1041,5	101,9
Gurlan tuman	2009,2	105,0
Qo'shko'pir tuman	868,2	100,1
Urganch tuman	1605,8	98,7
Xazorasp tuman	1979,0	100,1
Xonqa tuman	1212,3	99,5
Xiva tuman	602,4	101,7
Shovot tuman	1252,9	104,3
Yangiariq tuman	1772,5	104,8
Yangibozor tuman	1262,4	100,7

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,5 foizni tashkil qiladi.

Umumi chakana savdo tovar aylanmasining 71,9 foizini tashkil qiladi.

Kichik tadbirkorlik umumi tovar aylanmasining deyarli 372,1 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,3 foizni tashkil etadi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh. Gadaniyazov
(0371) 230-87-68